

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА



2021 йил махсус сон



da vrida harakat faoliyatiga salbiy ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilish muammosi hozirda dolzarb muammo sanaladi va uni xal etish yosh futbolchilarini tayyorgarlik jarayonlarini ancha samaraliroq boshqarish kerak deb o'ylaymiz.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. A.K.Belyakov. Pre-season training load management for success of Russian national football team in 2016 y. European Championship.
2. N.M.Yusupov dissertatsiya (28).Chirchik-2018.y
3. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Общая теория и ее практические приложения: учебник тренера высшей квалификации / В.Н.Платонов-М.Советский спорт, 2005-820 с.ил.

BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASGDA STEAM TIZIMINI SAMARADORLIGI.

Xolmatova Saida Vahobjonovna

Namangan davlat universiteti maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti maktabgacha talim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

E-mail: saida_xolmatova@bk.ru dx1975 tel:97 212-08-75

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish masalalari, tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlari, bolalarning qiziqishlari va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda bolalarning zerikmasligi va o'z fikrini erkin, to'laqonli bayon eta olishini kuchaytirish, bunda esa STEAM ta'limi yo'nalishidan foydalanishning samarasi haqida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: STEAM ta'limi yo'nalishi, texnologiya, ta'lim texnologiyasi, interfaol texnologiya, ta'lim samaradorligi, Steam-ta'lim dastur .

ЭФФЕКТИВНОСТЬ СИСТЕМЫ STEAM В ПОДГОТОВКЕ ДЕТЕЙ К ШКОЛЕ.

Холматова Саида Вахобджановна

учитель кафедры методики дошкольного образования НамГУ

E-mail: saida_xolmatova@bk.ru dx1975 tel:97 212-08-75

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы развития организаций дошкольного образования, организованных образовательно-воспитательных процессов, развития у детей интересов и творческих способностей, а также усиления у детей умения свободно и полноценно самовыражаться, и эффективности использования образовательного направления STEAM.

Ключевые слова: образовательное направление STEAM, технология, образовательная технология, интерактивная технология, образовательная эффективность, Steam-образовательная программа.

THE EFFECTIVENESS OF THE STEAM SYSTEM IN PREPARING CHILDREN FOR SCHOOL.

Xolmatova Saida Vahobjonovna.

teacher of the Department of Preschool Education Methodology, NamSU

E-mail: saida_xolmatova@bk.ru dx1975 tel:97 212-08-75



Annotation: The article discusses the development of preschool education organizations, organized educational processes, the development of children's interests and creative abilities, as well as strengthening children's ability to freely and fully express themselves, and the effectiveness of using the educational direction of STEAM.

Key words: educational direction STEAM, technology, educational technology, interactive technology, educational efficiency, Steam educational program.

Maktabgacha ta'lim bosqichi uzluksiz ta'limning eng muhim, mas'uliyatli, bola tarbiyasi va ta'lim olishi poydevori, asoslari shakllanadigan bosqichidir. Maktabgacha ta'limning asosiy vazifalari bolalarni xalqning boy milliy, madaniy, tarixiy me'rosi va ma'naviy-axloqiy an'analari ruhida tarbiyalash, bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlashdan iborat. Bu bosqichda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash masalasi eng dolzarb masalalardan sanaladi. Aynan shuni e'tiborga olgan holda bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasida, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash sohasida tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta'lim sohasida Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev faol tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan ishlar, qabul qilinayotgan farmon va qarorlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar, asosan, maktab ta'limiga maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va oilada tayyorlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni rivojlantirish va maktab ta'limiga tayyorlash 3 bosqichda amalga oshiriladi.

1. Bolalarni nutqini rivojlantirish.

2. Jismonan rivojlantirish.

3. Ma'nan rivojlantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari sog'lom va yetuk, maktabga, o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirib borishdan iboratdir. Bu talablarni amalga oshirishda zamonaviy dunyoda eng mashhur bo'lib kelayotgan STEAM ta'limi yo'nalishi va amaliy yondashuvni qo'llash, shuningdek, barcha beshta sohani yagona ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi bolajonlarni o'quv samaradorligiga ijobiy ta'sir qiladi.

STEAM ta'lim tizimi nima?

Agar ushbu qisqartmani yoysak, quyidagilarni olamiz: **STEAM bu – S – science, T – technology, E – engineering, A – art va M – math.** Ingliz tilida bu shunday bo'ladi: **tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika.** Ushbu yo'nalishlar zamonaviy dunyoda eng mashhur bo'lib kelayotganini unutmang. Shuning uchun bugungi kunda STEAM tizimi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. STEAM ta'limi yo'nalishi va amaliy yondashuvni qo'llash, shuningdek, barcha beshta sohani yagona ta'lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etilgan beshta markazda olib boriladigan faoliyatlarni samaradorligini oshirishda STEAM ta'limi yo'nalishi asosiy yordamni beradi.

STEAM yondashuvi o'quv samaradorligiga qanday ta'sir qiladi?-Uning asosiy g'oyasi shundan iboratki, amaliyot nazariy bilimlar singari muhimdir. Ya'ni, o'rganish paytida biz nafaqat miyamiz bilan, balki qo'limiz bilan ham ishlashimiz kerak. Faqat sinf devorlarida o'rganish tez o'zgaruvchan dunyo bilan hamqadam emas. STEAM yondashuvining asosiy farqi



shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o'rganish uchun ham miyani, ham qo'llarini ishlatadilar. Ular olgan bilimlarni o'zlari "uqib oladilar".

STEAM ta'limi nafaqat o'qitish usuli, balki fikrlash tarzidir. STEAM ta'lim muhitida bolalar bilimga ega bo'ladilar va darhol undan foydalanishni o'rganadilar. Shuning uchun, ular o'sib ulg'ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o'zgarishi bo'ladimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalaridagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Bu yerda faqat bitta mavzu bo'yicha bilimga tayanish yetarli emas.

STEAM yondashuvi bizning ta'lim va ta'limga bo'lgan qarashimizni o'zgartirada- amaliy qobiliyatga e'tibor berib, bolalar o'zlarining irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o'rganadi. Ushbu ko'nikmalar va bilimlar asosiy ta'lim vazifasini tashkil etadi, ya'ni bu butun ta'lim tizimi nimaga intilishidir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tayyorlov guruh bolalari bitiruvchilarining bilimlarini e'tiborga olishda markazlarda olib borilayotgan faoliyatlar birlashtirilganda STEM tizimi shu tarzda shakllandi. (Fan, texnika, muhandislik, matematika va art). Tarbiyachilar ushbu markazlarda STEM tizimi asosida bergan bilimlari kelajakda bolajonlarning yuqori malakali mutaxassis bo'lib etishishiga yordam beradi, deb hisoblanadi. Oxir oqibat, bolalar yaxshi bilim olishga intilishadi va uni darhol amalda qo'llashadi.

So'nggi o'n yilliklardagi o'zgarishlar yoqimli, ammo shu bilan birga bizni havotirlantiradi. Ushbu yangi narsalarning ixtiro qilinishi bilan odamlar ilgari duch kelmagan ko'plab yangi muammolar mavjud. Har kuni yangi ish turlari va hattoki butun kasbiy sohalar paydo bo'ladi, shuning uchun zamonaviy tarbiyachilar beradigan bilimlari va mahoratlarini vaqt talablariga javob beradimi yoki yo'qmi deb o'ylashlari kerak. Agar biz an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bilimlarni o'rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytsak, STEAM yondashuvi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtirishga o'rgatadi. Bu maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga nafaqat ba'zi bir g'oyalarga ega bo'lish, balki ularni amalda qo'llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi. Yaqin kelajakda dunyoda va shuning uchun O'zbekistonda muhandislar, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish mutaxassislariga talab juda yuqori bo'ladi. Uzoq kelajakda biz tabiiy fanlar bilan birgalikda texnologiya va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan kasblarga ega bo'lamiz,

Integratsiyalashgan ta'lim-Xo'sh, bu ta'lim tizimi va fanlarni o'qitishning an'anaviy usuli o'rtasidagi farq nima? STEAM-ta'lim bolajonlar olgan bilimlarini amalda qanday qo'llashni tushunishga kirishadigan aralash muhitni nazarda tutadi. Ushbu dastur bo'yicha bolajonlar, qurish-yasash markazlarida olgan bilimlari bilan bir qatorda, o'z robotlarini ishlab chiqadigan va ishlab chiqaradigan **robotlarni** o'rganadilar. Markazdada maxsus texnologik uskunalari ishlatiladi.

2014-yilda Quddusda bo'lib o'tgan "STEAM forward" xalqaro konferensiyasida quyidagi bayonotlar bildirildi:

- **Bolalarni STEAMga jalb qilish.** Ushbu ta'lim maktabgacha yoshdan boshlab boshlanishi kerak, shuning uchun dasturlarni bolalar bog'chalariga kiritish kerak.
- **Fan tili ingliz tilidir.** Agar ilm-fanni o'rganish va olim bo'lishni istasangiz, bu tilni bilishingiz kerak.
- **Qizlar uchun Steam-ta'lim dasturlari kerak.** Ilm-fan sohasidagi qizlar, ularning tartiblilik tufayli, o'g'il bolalar qila olmaydigan narsalarni qilishlari mumkin.



▪ **Science is fun!** Ilm-fan quvnoq bo'lishi kerak, u bolajonlar uchun qiziqarli va o'ziga jalb qiluvchi bo'lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, shuni ta'kidlashni lozimki, an'anaviy o'qitish uslublari bilan taqqoslaganda, maktabgacha ta'limdagi STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar o'tkazishga, mustaqil ravishda musiqa tinglashga, o'z g'oyalarini haqiqatga aylantirishga va yakuniy mahsulotni yaratishga undaydi. Ushbu ta'lim yondashuvi bolalarga nazariya va amaliy ko'nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi va universitetga kirish va keyingi o'qishni osonlashtiradi.

"Fan va tabiat" markazida tayyorlov guruh bolalarini suv bilan tanishtirish

Tarbiyachi tajribalar o'tkazishdan oldin mavzuga mos bir qancha ko'rgazmali qurollarni tayyorlab qo'yadi.

Tajribalar, asosan, quyidagi tartibda olib boriladi:

- ish maqsadini e'lon qilish;
- tarbiyachining yo'l-yo'riqlar berishi;
- topshiriqni tushuntirish;
- ko'rgazmali qurollar ustida ishlash;
- ilk tadqiqotchilik, kuzatish;
- o'tkazilgan ish natijalarini tushuntirish - suhbat;
- xulosa chiqarish.

Suv bilan tadqiqotlar

1. Suvning xususiyatlari(tiniqligi).

Maqsad: Bolalarni suvning xususiyatlari(tiniqligi) bilan tanishtirish.

Jihoz: suv, sut va 2 ta choy qoshiqcha

Tajribaning borishi:

1. Bolalardan idishlardagi suv va sutga qoshikchalar solishlarini so'rash.
2. Qaysi idishda qoshiqchalar ko'rinayotganini so'rash.
3. Nima sababdan bir stakanda qoshiqcha ko'rinyapti, ikkinchi stakanda qoshiqcha ko'rinmayapti? (Chunki, suv tiniq va rangsiz bo'lganligi uchun suvli stakanda qoshiqcha ko'rinyapti)

Xulosa: Bolalar suv tiniq, sut esa oq rangda bo'lganligi uchun suvli stakanda qoshiqcha ko'rinyapti deb xulosa chiqaradilar

2. Suvning xususiyatlari(tami yuqligi)

Maqsad: Bolalarni suvning xususiyatlari ya'ni uning ta'mi yo'qligi bilan tanishtirish.

Jihoz: Bir stakan suv, bir stakan sok.

Tajribaning borishi:

1. Bolalarning bir stakan suvni ichib ko'rishi.

Savol: Suvning ta'mi bormi?

2. Bolalarning bir stakan sokni ichib ko'rishi.

Savol: Sokning ta'mi qanday?

Xulosa: Bolalar o'tkazilgan tajriba asosida suvni ta'mi yo'q deb xulosa chiqaradilar.

3. Suvning xususiyatlari(shaklsizligi)

Maqsad: Bolalarga suvning suyuqligi va uning shakli yo'qligi haqida tushuncha berish.

Jihoz: Bo'sh idish, bir stakan suv va ikki xil shaklga ega bo'lgan idish.

Tajribaning borishi:



1. Bolalarga 2 ta idish beriladi. Biri suv bilan, ikkinchisi bo'sh.

2. Idishdagi suvlarni ehtiyotkorlik bilan quyish taklif etiladi.

Savol: Suv yaxshi quyildimi? Nima sababdan? (chunki suv suyuq, agar suv quyug bo'lganda soylarda, daryolarda oqmas edi)

3. Suvni ikki xil shakldagi idishlarga solib ko'rsatish. Savol: Suv qanday shaklga ega bo'ldi?

Xulosa: Bolalar o'tkazilgan tajriba orqali suv suyuqligi va uning shakli yo'q deb xulosa chiqaradilar deb xulosa chiqaradilar.

4. Tabiatda suvning o'rnini.

Maqsad: Bolajonlarga suv – obi hayot ekanligini tushuntirish.

Jihoz: Turli xil idishlar, idish solingan suv.

Tajribaning borishi:

1. Idishga gul ko'chatini ekish.

2. Suv quyib parvarishlash.

Xulosa: O'simliklar dunyosida suvning o'rnini bilish.

5. Suvda nima aralashmoqda yoki aralashmayapti?

Maqsad: Suvda ba'zi narsalar aralashadi, yo'q bo'lib ketmaydi.

RESURSLAR: Idishda suv, qum, shakar, rangli bo'yoqlar, qoshiqchalar.

Ikki idishda suv oling. Birinchi idishga qum soling va aralashiring. Qum suvda aralashdimi? Ikkinchi idishga qoshiqda shakar solamiz. SHakar suvda aralashdimi? Yana bir idishdagi suvga rangli bo'yoqni qo'shamiz. Nima bo'ldi? Suvda aralashdi.

Har bir bolaga alohida idish, qoshiq, kerakli narsalar berilishi lozim.

6. Muz – qattiq holatdagi suv

Maqsad: suvning xususiyatlarini tanishtirish.

RESURSLAR: Turli kattalikdagi muzlar, idishlar

Har bir bola uchun alohida idishlarga katta va kichik muz bo'laklarini beramiz. Qo'llar yordamida uni ushlab ko'rish, uni eriyotganini kuzatish. Qaysi muz bo'lagi tez eridi. Erigan muz bo'lagi nimaga aylandi? Sovuq suv. Qish fasli bo'lsa qorni ham kuzating. Bolalar muzlar kattaligiga qarab erish holatini kuzatsinlar. Xulosalash, fikr-mulohazalar tinglash.

XULOSA: muz, qor ham suv.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017-2021-йилларда мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2707-сонли Қарори. 2016 йил, 29 декабрь.

2. Egamberdieva N. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

3. “Илк қадам” давлат ўқув дастури. Тузувчилар: Грошева И.В., Евстафева Л.Г., Маҳмудова Д.Т., ва бошқалар. – Тошкент, 2018 йил.

4. Roziqova M., Umarova K., Murodova N. Maktabgacha ta'lim muassasalarining tarbiyalanuvchilari uchun rivojlantiruvchi o'yinlar majmuasi. – Toshkent, 2013.

5. Содиқова Ш.А. Мактабгача педагогика. – Тошкент, 2018.

6. Bolangiz maktabga tayyormi? – Toshkent, 2011.